

Манба ва фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Hooghe L., Marks G., Schakel AH, et al. (2016) *Measuring Regional Authority: A Postfunctionalist Theory of Governance* (Vol. 1). Oxford: Oxford University Press.
2. Tiebout CM. (1956) *A pure theory of local expenditures*. *Journal of Political Economy* 64(5): 416-424.
3. Iimi A. (2005) *Decentralization and economic growth revisited: An empirical note*. *Journal of Urban Economics* 57(3): 449-461.
4. Oates WE. (1972) *Fiscal Federalism*. New York: Harcourt-Brace Jovanovich.
5. Rodríguez-Pose A., Ezcurra R. (2010) *Does decentralization matter for regional disparities? A cross-country analysis*. *Journal of Economic Geography* 10(5): 619-644.
6. Morgan K. (2002) *English Question: Regional perspectives on a fractured nation*. *Regional Studies* 36(7): 797-810.
7. Lago-Peñas S., Martínez-Vázquez J., Sacchi A. (2020) *Fiscal stability during the Great Recession: Putting decentralization design to the test*. *Regional Studies* 54(7): 919-930.
8. Rodríguez-Pose A., Ezcurra R. (2011) *Is fiscal decentralization harmful for economic growth? Evidence from the OECD countries*. *Journal of Economic Geography* 11(4): 619-643.
9. Brueckner JK. (2004) *Fiscal decentralization with distortionary taxation: Tiebout vs. Tax competition*. *International Tax and Public Finance* 11(2): 133-153.
10. Prud'Homme R. (1995) *The dangers of decentralization*. *World Bank Research Observer* 10(2): 201-220.
11. Bolton P., Farrell J. (1990) *Decentralization, duplication and delay*. *Journal of Political Economy* 98(4): 803-826.
12. Rodríguez-Pose A. (2018) *The revenge of the places that don't matter (and what to do about it)*. *Cambridge Journal of Regions, Economy and Society* 11(1): 189-209.
13. Rodríguez-Pose A. & Muštra V. (2022). *The economic returns of decentralisation: Government quality and the role of space*. *Environment and Planning A: Economy and Space*, 54(8), 1604-1622. <https://doi.org/10.1177/0308518X221118913>
14. Iammarino S., Rodríguez-Pose A., Storper M. (2019) *Regional inequality in Europe: Evidence, theory and policy implications*. // *Journal of Economic Geography* 19(2): 273-298.
15. Muringani J., Fitjar RD., Rodríguez-Pose A. (2019) *Decentralization, quality of government and economic growth*. *Revista de Economía Mundial*. // *Journal of World Economy* 51: 25-50.
16. <https://trends.rbc.ru/trends/social/6260fb9d9a794768ff6beb0f>



SANOAT AGLOMERATSIYALARINING HUDUDIY IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI BAHOLASH

Raximbayev Akmal Azatboyevich -
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss4/a64

Annotatsiya. Maqolada hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida sanoat aglomeratsiyaning ta'sirini baholash bo'yicha ilmiy-nazariyalar hamda sanoat aglomeratsiyalarining shakllanishi va rivojlanish mexanizmlari o'rganilgan. Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi asosida sanoat aglomeratsiyasining mintaqaviy iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholash usulini taklif etgan. Taklif etilgan usul asosida O'zbekiston Respublikasi mintaqalarida sanoat aglomeratsiyalarining hududiy rivojlanishga ta'siri statik aglomeratsiya indeksi asosida aniqlangan. Natijalarga ko'ra, sanoat aglomeratsiyalarining rivojlanishi hududlarda iqtisodiy o'sishga turlicha ijobiy va salbiy ta'sirlari mavjud ekanligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: sanoat, YAIM, YAXM, aglomeratsiya, ishchi kuchi, mintaq, hududiy sanoat, regressiya, aglomeratsiya indeksi.

ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ АГЛОМЕРАЦИЙ НА МЕСТНЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ

Рахимбаев Акмаль Азатбоевич -
Независимый научный сотрудник
Ургенчского государственного университета

Аннотация. В статье рассматриваются научные теории по оценке влияния промышленных агломераций на социально-экономическое развитие регионов, а также механизмы формирования и развития промышленных агломераций. На основе производственной функции Кобба-Дугласа предлагается метод оценки влияния промышленной агломерации на региональный экономический рост. На основе предложенной методики определялось влияние промышленных агломераций на региональное развитие в регионах Республики Узбекистан на основе статического индекса агломерации. По результатам определено, что развитие промышленных агломераций оказывает разное положительное и отрицательное влияние на экономический рост в регионах.

Ключевые слова: промышленность, ВВП, ВВП, агломерация, рабочая сила, регион, региональная промышленность, регрессия, индекс агломерации.

Rakhimbaev Akmal Azatboevich -*Independent researcher of Urganch State University*

Abstract. *The article examines the scientific theories on the assessment of the impact of industrial agglomeration on the socio-economic development of regions, as well as the mechanisms of formation and development of industrial agglomerations. Based on the Cobb-Douglas production function, a method for assessing the impact of industrial agglomeration on regional economic growth is proposed. Based on the proposed method, the impact of industrial agglomerations on regional development in the regions of the Republic of Uzbekistan was determined based on the static agglomeration index. According to the results, it was determined that the development of industrial agglomerations has different positive and negative effects on economic growth in regions.*

Key words: *industry, GDP, GDP, agglomeration, workforce, region, regional industry, regression, agglomeration index.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonida "Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish; hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini tashkil etish va biznes-inkubatorlar tizimini rivojlantirish"[1] vazifalari belgilab berilgan. Sanoatni rivojlantirishning asosiy maqsadlari ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilish, homashyoni qayta ishlash sanoatini samarali rivojlantirishga yo'naltirilgan an'anaviy modelga xosdir. Sanoat siyosatining an'anaviy modellari sanoatni innovatsion rivojlanishi ta'minlanishiga imkon bermaydi. Mamlakatda sanoat aglomeratsiyalarini shakllantirishning ustuvor maqsadlari innovatsion sanoat klasterlarini yaratish orqali raqobatbardoshlikni oshirishdan iboratdir. Mazkur vazifalarning samarali bajarilishi hududlarda sanoat aglomeratsiyalarini shakllanish mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi.

Sanoat aglomeratsiyasi deganda bir xil turdagi sanoatning ma'lum bir geografik hududda yuqori darajada jamlanganligi va bu turdagi sanoatga tegishli kapital va omillarning bozor mexanizmlari asosida to'planishi va asta-sekin birlashishi jarayoni tushuniladi. Hududiy iqtisodiy rivojlanish bilan bog'liq nazariyalarda sanoat aglomeratsiyasi asta-sekin iqtisodiy o'sishning muhim harakatlantiruvchi kuchiga aylanishi, mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvni amalga oshirishga yordam berishi asoslangan. Sanoat aglomeratsiyasi darajasining yaxshilanishi nafaqat mehnat taqsimoti va ixtisoslashuviga yordam beradi, balki korxonalar o'rtasidagi raqobatni ham kuchaytirishga imkoniyat yaratadi. Ushbu holatlar sanoat aglomeratsiyasi va iqtisodiy o'sish o'rtasida sanoatni yangilashga asoslangan samaralar mavjudligi bo'yicha gipotezalarni asoslash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shunga ko'ra mazkur maqolada sanoat hududlarining har tomonlama raqobatbardoshligini oshirish va mintaqaviy iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda sanoatni aglomeratsiya darajasini ahamiyati o'rganilgan.

Adabiyotlar tahlili. Sanoat aglomeratsiyasi nazariyalari bo'yicha ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar izlanishlar olib borilgan. Aglomeratsiyalar bo'yicha ilk nazariy qarashlar neoklassik iqtisodning asoschilaridan biri Marshallning sanoat aglomeratsiyasining "sanoat zonasi" ni shakllantirishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va tashqi iqtisodiyotni hududga jalb qilish harakati sifatida qaragan. Chunki sanoat birgalikda jamlangandan so'ng, u bilimlarning tarqalishini amalga oshirishga, ixtisoslashgan yetkazib beruvchilar guruhini shakllantirishga, mehnat va boshqa omillar bozorlarini almashishga yordam berdi va shu bilan samaradorlikni oshirdi. Bu qarash kelajakdagi tadqiqotlar uchun asos yaratdi. Sanoat aglomeratsiyasi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi munosabatlarga oid tadqiqotlar uchun ko'pchilik olimlar sanoat aglomeratsiyasi bilim va texnologiyalarning tarqalishi, mehnat unumdorligini oshirish, bandlik imkoniyatlarini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va boshqa sabablar orqali mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga yordam beradi, deb hisoblashgan. Ular orasida, Guver sanoat aglomeratsiyasi iqtisodiy o'sishga yordam berishining sababi sanoat aglomeratsiyasi tomonidan yaratilgan tashqi iqtisodiyot sanoat zonasiga qo'shilish uchun ko'proq shunga o'xshash korxonalarni jalb qilishi va shu bilan sanoat zonasining iqtisodiy o'sishiga yordam berishi, deb hisobladi.[2] Iqtisodiy geografiya nazariyasida sanoat aglomeratsiyasi bilim va texnologiyalarning tarqalish samarasi orqali mintaqaviy iqtisodiy o'sishga yordam beradi, deb hisoblardi.[3] Martin va boshqalar sanoat aglomeratsiyasining mintaqaviy iqtisodiy o'sishga yordam berishining sababi ishlab chiqarish faoliyati konsentratsiyalangan sanoat hududi korxonalarining texnologik innovatsiyalari uchun qulay bo'lganligi va texnologiyaning tarqalishini amalga oshirganligi deb hisoblardi.[4] Geppert mintaqaviy iqtisodiy o'sish sur'atlarining o'rtacha darajadan yuqori bo'lishi muhim tarmoqlar konsentratsiyasiga bog'liqligini aniqladi va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda sanoat aglomeratsiyasining roli yuqori ekanligini asosladi.[5] Lin Xiuli va boshqalar sanoat aglomeratsiyasining iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganib chiqdi va sanoat aglomeratsiyasi iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, turli sanoat aglo-

meratsiyalari iqtisodiy o'sishga turli xil ta'sir ko'rsatishini aniqladi.[6] Chen Lu va boshqalar[7] turli davrlarda sanoat aglomeratsiyasi va mintaqaviy iqtisodiy o'sish o'rtasidagi munosabatlarni o'rganib chiqdi va moliyaviy inqirozning burilish nuqtasi sifatida sanoat aglomeratsiyasining sanoat zonalarining iqtisodiy o'sishga ta'siri ijobiydan salbiyga o'zgarishini aniqladilar, shuningdek, sanoat aglomeratsiyasi nafaqat sanoat hududlarida iqtisodiy o'sish sur'atlariga yordam beradi, balki qo'shni hududlarda iqtisodiy o'sish ta'sirini sezilarli darajada yaxshilashga yordam berishini asosladi.

Lu Fei va boshqalar [8] tadqiqotlarida sanoat aglomeratsiyasini ish haqi ustamalariga ta'siri va ish haqi ustamalarini mehnat unumdorligini oshirishga ta'siri va shu bilan iqtisodiy o'sishga yordam berishi asoslangan. Biroq, ba'zi olimlar turli xil fikrlarni ilgari surdilar. Bryulxart[9] sanoat aglomeratsiyasi iqtisodiy rivojlanish darajasi kritik qiymatdan past bo'lganda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi mumkin, deb hisobladi va kritik qiymatdan oshib ketganda ta'sir ahamiyatli bo'lmasligini asosladi.

Kombs[10] sanoat aglomeratsiyasining iqtisodiy o'sishga ta'siri unchalik katta emasligini va hatto uning rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkinligini aniqladi.

Iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida aglomeratsiyalarning ijobiy va salbiy samaralari ko'rib chiqilgan, aglomeratsiya va uning hududiy rivojlanishdagi rolini tadqiq etish uslubiyati O'zbekistonlik olimlardan F.U.Nazarova[11] tomonidan tadqiq etilgan. Tadqiqotchi Shahar aglomeratsiyasi va uning hududiy rivojlanishdagi rolini tadqiq etishning 3 bosqichli modelini taklif etadi. Z.A.Xakimov[12] tadqiqotlarida O'zbekistonda to'qimachilik sanoatini aglomeratsiyalar rivojlanishini tahlil qilish bo'yicha metodologik yondashuv taklif etilgan. Mazkur tadqiqotda Aglomeratsiya indeksini hisoblash 3 bosqichda amalga oshirilgan Birinchi bosqichda sanoatning geografik konsentratsiyalashuv indeksi hisoblangan. Ikkinchi bosqichda hududning ixtisoslashuv darajasini aniqlashda Xerfindal-Xirshman indeksidan foydalanilgan. Sanoatning geografik konsentratsiyalashuv indeksi hamda Xerfindal-Xirshman indeksidan foydalanish asosida Ellison-Glazer aglomeratsiya indeksi hisoblangan.

Umuman olganda sanoat aglomeratsiyalarini shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlar O'zbekistonlik olimlar tomonidan yetarlicha olib borilmagan.

Yuqoridagi xulosalardan shuni ko'rishimiz mumkinki, sanoat aglomeratsiyasining iqtisodiy o'sishga ta'siri to'g'risidagi fikrlar izchil emas. Ushbu maqola sanoat aglomeratsiyasining iqtisodiy o'sishga ta'sirini qayta ko'rib chiqadi va sanoat aglomeratsiyasining iqtisodiy o'sishga ta'siri sanoatni modernizatsiya qilish nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. Ya'ni sanoat tuzilmasi evolyutsiyasi ta'sirida sanoat aglomeratsiyasining iqtisodiy o'sishga ta'siri o'zgaradimi? Sanoat aglomeratsiyasi va mintaqaviy

iqtisodiy o'sish o'rtasidagi munosabatlarga sanoat tuzilmasi evolyutsiyasi ta'sir qiladimi yoki yo'qligini o'rganish uchun. Ushbu maqola panel pol modelidan foydalanadi va sanoat aglomeratsiyasining mintaqaviy iqtisodiy o'sishga ta'sirini, chegara o'zgaruvchisi sifatida sanoatni yangilash bilan tahlil qiladi.

Metodologiya. Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi asosida sanoat aglomeratsiyasining mintaqaviy iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganish uchun O'zbekiston viloyatlari bo'yicha 2007-2023-yilgacha 14 ta hududiga tegishli ma'lumotlardan foydalaniladi.

Kobb-Duglas funksiyasidan hozirgi kunda ham iqtisodiy o'sishning alohida omillarini, ayniqsa texnik rivojlanish va investitsiyalar samaradorligini baholashda keng foydalaniladi.

Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi iqtisodiy tahlil uchun o'ta qulay vosita bo'lib iqtisodiy dinamikani modellashtirishda asos hisoblanadi, uning yordamida har qanday darajadagi ishlab chiqarish jarayoni-korxonalar, mintaqalar, mamlakatlar modellashtirilgan. Iqtisodiyotning bir tomonini, ya'ni resurslarni natijaga qayta shakllanishini aks ettiradi. Funksiya o'z xossalari ko'ra, real darajada iqtisodiy voqealikka o'xshash hisoblanadi, chunki u resurslar va ishlab chiqarish natijalari orasidagi real mavjud bo'lgan ishlab chiqarishning o'zaro aloqalarining katta qismini ta'riflaydi.

Kobb-Duglas funksiyasini modifikatsiyalash-tirsak, u orqali sanoat aglomeratsiyalarini hududiy rivojlanishga ta'sirini topish mumkin.

$$\ln GDP_{it} = a_0 + a_1 W_{it} + a_2 X_{it} + \mu_{it} \quad (1)$$

Bunda,

$\ln GDP_{it}$ — tekshiriladigan i hududning t davrdagi aholi jon boshiga YAXM hajmining logarifmini ifodalaydi;

W_{it} — sanoat aglomeratsiyasini ifodalaydi;

X_{it} — ishchi kuchi, sanoat korxonalari sonini o'z ichiga olgan nazorat o'zgaruvchisidir;

μ_{it} — tasodifiy xato atamasini ifodalaydi.

Hududlarda sanoatni aglomeratsiya darajasining o'zgarishi hududning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga ta'sir ko'rsatishi yoki yo'qligi yuqorida keltirilgan model asosida aniqlanadi.

Bog'liq o'zgaruvchini mintaqaning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki (hududiy) mahsuloti olinganligi, hududiy rivojlanishni yanada aniqroq ifoda etishini bildiradi.

Mustaqil o'zgaruvchi sifatida tanlangan sanoat aglomeratsiyasi indeksi statistik ko'rsatkichlari taqdim etilmaganligi sababli uni hisoblash uchun joylashuv usulidan foydalanadi. Joylashuv usuli (Location Entropy) statik aglomeratsiya indeksini o'lchashga yordam beradi. Joylashuv entropiyasi birinchi marta P. Xagget tomonidan aniqlangan va ma'lum bir sanoatning ixtisoslashuvida mavjud

bo'lgan konsentratsiya darajasini aniqlash uchun ishlatilgan. U ixtisoslashuv darajasi deb ham ataladi. Joylashuv entropiyasi formulasi quyidagicha:

$$W_{it} = \frac{q_{ty}/q_t}{Q_y/Q}; \quad (2)$$

Formulani quyidagicha ifodalash mumkin

$$W_{it} = \frac{q_{ty}/Q_y}{q_t/Q}; \quad (3)$$

Bunda;

q_{ty} – y mintaqadagi x tarmoqning ishlab chiqarish qiymatini ifodalaydi, ya'ni hududlardagi jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ifodalaydi;

q_t – ma'lum davrda respublikadagi sanoatning umumiy ishlab chiqarish qiymatini ifodalaydi;

Q_y – hududiy yalpi mahsulot hajmini ifodalaydi;

Q – YAIM hajmini ifodalaydi;

Umuman olganda, mazkur ko'rsatkich hududidagi sanoat mintaqada o'ziga xos afzallikka ega ekanligini anglatadi yoki viloyat sanoatga yetarli darajada ixtisoslashmaganligini aks ettiradi. Sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish qiymatining belgilangan hajmdan yuqori bo'lgani hududlarining respublika sanoat mahsuloti qiymatiga nisbati bilan o'lchanadi va chegaraviy qiymatlar aniqlash tavsiya etiladi. Agar aglomeratsiya darajasi 1 dan katta qiymatlarni qabul qilsa ushbu hudud sanoat aglomeratsiyalarini rivojlanish darajasini yuqori ko'rsatkichiga ega degan xulosalarni beradi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot metodologiyasiga asoslangan holda shakllantirilgan statistikani tahlili uchun exell dasturidan foydalaniladi. Bunda birinchi bosqichda barcha viloyatlar uchun sanoat shartli aglomeratsiya indeksi hisoblanadi. Natijalar statistikasi 1-jadval ma'lumotlarida aks etgan.

1-jadval

Joylashuv usuli (Location Entropy) asosida statik aglomeratsiya indeksini hisoblash natijalari

Hududlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1,33	1,27	1,08	1,06	1,05	0,95
Andijon	1,43	1,84	1,63	0,60	1,34	1,60
Buxoro	0,80	0,71	0,87	0,73	0,88	0,95
Jizzax	0,56	0,51	0,47	1,24	0,61	0,67
Qashqadaryo	1,08	1,00	1,04	0,65	0,71	0,73
Navoiy	1,90	1,84	2,03	0,46	2,03	2,03
Namangan	0,64	0,63	0,61	0,82	0,70	0,71
Samarqand	0,73	0,75	0,67	0,53	0,70	0,75
Surxondaryo	0,35	0,32	0,31	0,93	0,36	0,33
Sirdaryo	1,19	1,10	1,02	1,79	1,05	1,06
Toshkent	1,59	1,71	1,61	0,36	1,64	1,61
Farg'ona	1,00	0,90	0,95	0,62	0,94	0,87
Xorazm	0,72	0,74	0,74	1,08	0,84	0,92
Toshkent sh.	1,32	1,24	1,03	0,24	1,20	1,19

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

Tahlilning ikkinchi bosqichida aglomeratsiya indeksini o'zgarishini viloyatlarning yalpi hududiy mahsulot hajmiga ta'sirini yashirin ta'sir modeli asosida aniqlanadi. Bunda respublika bo'yicha W_{it} ni respublika bo'yicha hududiy rivojlanishga ta'sirini baholash modelini exell dasturi asosida topilgan natijalari 2-jadvalda ifodalangan.

Mintaqaviy iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda sanoat aglomeratsiyasining roli yuqori ahamiyatga ega ekanligini 2-jadval ma'lumotlari asoslamoqda. Baholash natijalarilariga ko'ra sanoat aglomeratsiyalarining hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini natijalari Toshkent shahrida eng yuqori ekanligi asoslandi. Sababi, aglomeratsiya indeksining 1 foizga yaxshilanishi natijasida YAXM 4,8 foizga o'sishi kuzatilmoqda. Biroq, sanoat aglomeratsiyalarining vodiy viloyatlari bo'lgan Namangan va Andijon viloyatlarida yuqori ta'sir ko'rsatishi lozim edi. Tahlil natijalari bunday xulosaga kelishga yo'l qo'ymadi. Sababi viloyatlarda aholi soni va ishlab chiqarish korxonalar ko'p va hududiy jihatdan korxonalar bir biriga juda yaqin bo'lsa-da, sanoatni

joylashtirishga yuqori ahamiyat qaratilmaganligi aniqlandi. Andijon viloyatida sanoatni hududiy rivojlanishga ta'siri natijalariga ko'ra viloyatda sanoat ko'proq korxonalarini tashkil etilishi hisobiga rivojlanmoqda. Namangan viloyatida esa aksincha asosan ishchi kuchi hisobiga rivojlanmoqda.

Sanoat aglomeratsiyalarini rivojlanishi asosida hududiy rivojlanishni ta'minlash tajribalari Navoiy viloyatida yuqori hisoblanadi. Sababi, Navoiy EIZning ko'p yillik faoliyati aglomeratsiyalar rivojlanishiga sabab bo'lgan. Shunga ko'ra, Navoiy viloyatida sanoat aglomeratsiyalarini iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sirini ko'rish mumkin. Biroq viloyatda ishchi kuchi bilan bog'liq muammolar mavjud bo'lib, YAXMni ortishiga ishchi kuchining teskari munosabati mavjud. Mazkur holat viloyatda so'nggi 5 yilda yuqori texnologiyalari modernizatsiyalashga ahamiyat qaratilganligi e'tiborga olish lozim. Ishchi kuchi bilan bog'liq muammolar nafaqat Navoiy viloyati balki, Toshkent viloyatida ham mavjud.

Sanoat aglomeratsiyalashuv darajasini hududiy rivojlanishga ta'siri

Hududlar	μ_{it}	Ln(X1)	Ln(X2)	Ln(W)	R ²	F	F qiymat
Qoraqalpog'iston Respublikasi	12,175	0,867	-2,249	-1,191	0,977	28,849	0,034
	8,838	1,209	-2,104		0,954	31,447	0,010
Andijon	-4,713	1,030	0,961	-0,059	0,837	3,416	0,235
	-1,194	1,056	0,239		0,834	7,557	0,067
Buxoro	7,930	-0,676	1,291	0,316	0,989	130,162	0,001
	7,499	-0,647	1,316		0,996	172,462	0,006
Jizzax	2,192	0,992	-0,142	-0,077	0,992	86,574	0,011
	1,692	0,848	0,275		0,989	138,779	0,001
Qashqadaryo	4,495	0,884	-0,494	0,425	0,967	19,688	0,049
	2,957	0,713	0,127		0,946	26,084	0,013
Navoiy	24,769	1,280	-5,127	0,126	0,926	8,345	0,109
	10,696	1,257	-2,096		0,919	16,996	0,023
Namangan	-15,89	0,608	4,038	-0,041	0,997	216,653	0,005
	-16,63	0,576	4,248		0,997	474,827	0,000
Samarqand	5,330	0,744	-0,435	0,362	0,998	367,696	0,003
	-1,343	0,696	0,899		0,980	74,192	0,003
Surxondaryo	-15,81	0,558	4,979	0,194	0,990	63,820	0,015
	-5,269	0,567	2,385		0,949	28,161	0,011
Sirdaryo	-18,11	0,758	6,318	0,297	0,959	15,644	0,061
	-8,881	0,835	3,526		0,949	27,905	0,012
Toshkent	-2,817	1,459	-0,026	0,060	0,980	32,416	0,030
	-2,607	1,399	0,033		0,974	55,448	0,004
Farg'ona	-15,35	1,119	2,637	-0,302	0,984	39,858	0,025
	-1,084	0,932	0,352		0,978	67,244	0,003
Xorazm	-15,96	0,694	4,830	0,270	0,975	26,189	0,037
	-12,51	0,845	3,682		0,969	47,677	0,005
Toshkent sh.	-15,96	0,27	0,694	4,83	0,975	26,189	0,037
	-12,51	0,845	3,682		0,969	47,677	0,005

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi xulosalar asosida quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi: Birinchidan, iqtisodiy o'sishga ko'maklashish jarayonida sanoat aglomeratsiyasi muhim harakatlantiruvchi kuch bo'lib, uni e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi.

Sanoat aglomeratsiyasi hududini jadal rivojlantirish, hududidagi sanoat korxonalarini sanoat zonalariga joylashtirishga ahamiyat qaratish va bu borada turli siyosiy imtiyozlar berish talab etiladi.

Yuqori standartli infratuzilmani barpo etish, sanoat aglomeratsiyasi hududiga kirish uchun yanada ilg'or sanoat korxonalarini jalb qilish zarur bo'yicha investitsion loyihalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

To'liq sanoat zanjirini shakllantirish va keraksiz xarajatlarni kamaytirish uchun sanoat klasterlarini yaratishni oqilona rejalashtirish lozim. Shuningdek, boshqaruv tizimi sanoat aglomeratsiyasi hududining o'ziga xos rivojlanishiga moslashish uchun haqiqiy ish sharoitlariga muvofiq shakllantirilishi kerak. Bundan tashqari, aglomeratsiya hududidagi xarakterli sanoat tarmoqlarini maqsadli rivojlantirish imkoniyatlarini ham tahlil qilish talab etiladi.

Hududning har tomonlama raqobatbardoshligini yaxshilash va sanoat aglomeratsiyasi sama-

rasini va afzalliklarini oshirish uchun viloyatlarda sanoatni joylashtirishning iqtisodiy mexanizmlarini yaratish talab etiladi. Sanoat aglomeratsiyasini shakllanishi nafaqat bozorning erkin rivojlanishini, balki davlatning tartibga soluvchi rolini ham talab qiladi. Sanoat hududiga ko'proq kapital va ishchi kuchini jalb qilish uchun iqtisodiy islohotlarni faol yo'lga qo'yish va investitsiya muhitini yaxshilash talab etiladi.

Shu bilan birga, sanoat aglomeratsiyasi hududida ilmiy va texnologik innovatsiyalar darajasini oshirishga ko'maklashish uchun ilmiy-texnik tadqiqotlar va ishlanmalarga investitsiyalarni ko'paytirish yoki sanoat korxonalarini negizida innovatsion xablar, texnoparklar yaratish bo'yicha motivatsion mexanizmlardan foydalanish lozim.

Uchinchidan, sanoat aglomeratsiyasini rag'batlantirish bilan birga, sanoatni modernizatsiya qilish ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Sanoat tuzilmasini samarali arxitekturasini yaratish jarayonida korxonalariga qo'yiladigan talablar ham ortadi, raqobatbardoshligi past bo'lganlar yo'q qilinadi va yuqori sifatli korxonalar gullab-yashnashda davom etadi. Korxonalar aglomeratsiyasi natijasida yuzaga keladigan aglomeratsiya samarasi mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga yanada aniq yordam beradi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
2. Hoover, E.M. and Giarratani, F. (1971) *An Introduction to Regional Economics*. [https://cc.glgoo.top/scholar?hl=zhCN&as_sdt=0%2C5&q=An+Introduction+to+Regional+Economics&btnG=Return to text](https://cc.glgoo.top/scholar?hl=zhCN&as_sdt=0%2C5&q=An+Introduction+to+Regional+Economics&btnG=Return+to+text)
3. Krugman, P. (1991) *Increasing Returns and Economic Geography*. *Journal of Political Economy*, 99, 483-499. <https://doi.org/10.1086/261763>
4. Martin, P. and Ottaviano, G.I. (2001) *Growth and Agglomeration*. *International Economic Review*, 42, 947-968. <https://doi.org/10.1111/1468-2354.00141>
5. Geppert, K., Gornig, M. and Werwatz, A. (2006) *Economic Growth of Agglomeration and Geographic Concentration of Industrial-Evidence from Germany*. *Discussion Paper*, 8.
6. Lin, X.L. and Zhao, J. (2016) *Industrial Agglomeration and the Economic Growth of the City—Based on the Analysis of Prefecture-Level Cities' Panel Data of Guangdong*. *Review of Industrial Economics*, 82-91
7. Chen, L., Sun, B. and Xie, X. (2019) *Spillover Effect of Economic Growth of Industrial Agglomeration. Based on New Economic Geography*. *Journal of Capital University of Economics and Business*, 42-52.
8. Lu, F., Zhang, J. and Liu, M. (2017) *Industrial Agglomeration, Wage Premium and Economic Growth*. *Journal of Southwest University for Nationalities (Humanities and Social Sciences)*, 140-148.
9. Brülhart, M. and Sbergami, F. (2009) *Agglomeration and Growth: Cross-Country Evidence*. *Journal of Urban Economics*, 65, 48-63
10. Combes, P.P. (2000) *Economic Structure and Local Growth: France, 1984-1993*. *Journal of Urban Economics*, 47, 329-355.
11. Назарова Феруза Усмоновна. *Агломерациялар ривожланишини таҳлил қилишнинг услубий масалалари // Экономика и финансы (Узбекистан). 2019. №8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/aglomeratsiyalar-rivozhlanishini-ta-lil-ilishning-uslubiy-masalalari> (дата обращения: 27.07.2023).*
12. Xakimov Z.A. *To'qimachilik sanoatida hududiy aglomeratsiyalar rivojlanishini baholash // «O'zbekiston Statistika axborotnomasi» ilmiy elektron jurnali. № 1 (15). 2023 йил. 38-49 бетлар.*